

*Yuldasheva Dilfuza**O'zbekiston xalqaro islam
akademiyasi, 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada islam ta'lomitida insonparvarlik tamoyillarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Qur'on oyatlari va hadislarga asoslanib, insonning sha'ni, huquqlari, hurmati va ijtimoiy adolatga doir asosiy prinsiplar yoritiladi. Shuningdek, islam huquqi doirasida insonparvarlik g'oyalari qanday shakllangani va bu tamoyillar bugungi kunda qanday qo'llanilishi mumkinligi muhokama qilinadi. Maqolada islomdagi rahm-shafqat, bag'rikenglik, adolat, yordam va tinchlik kabi qadriyatlar asosida, musulmon jamiyatlarida inson huquqlarini ta'minlashdagi yondashuvlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, adolat, hurriyat, erkinlik, nazariya.

ГУМАНИСТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ В ИСЛАМСКОМ УЧЕНИИ

Аннотация: В данной статье анализируется место и значение гуманистических принципов в исламском учении. На основе коранических аятов и хадисов освещаются основные принципы, касающиеся части человека, его прав, достоинства и социальной справедливости. Также рассматривается, как идеи гуманизма формировались в рамках исламского права и каким образом эти принципы могут быть применены в современности. В статье изучаются подходы к обеспечению прав человека в мусульманских обществах на основе таких ценностей, как милосердие, терпимость, справедливость, помощь и мир.

Ключевые слова: права человека, справедливость, свобода, достоинство, теория.

HUMANITARIAN PRINCIPLES IN ISLAMIC TEACHING

Abstract. This article analyzes the place and importance of humanitarian principles in Islamic teaching. Based on verses from the Qur'an and prophetic traditions (hadith), it highlights the core principles related to human dignity, rights, respect, and social justice. The paper also discusses how humanitarian ideals have been shaped within Islamic law and how these principles can be applied in the modern context. It explores approaches to ensuring human rights in Muslim societies grounded in the values of compassion, tolerance, justice, charity, and peace.

Keywords: human rights, justice, freedom, dignity, theory.

KIRISH

Inson huquqlari mavzusi o‘tgan asrning eng ko‘p muhokama qilingan, ahamiyati kundan-kunga ortib borayotgan mavzu bo‘lib, bugungi kunda ham ushbu mavzuning dolzarbligi davom etmoqda. Inson yashar ekan, inson huquqlari haqida juda ko‘p gapirish mumkin. Shuning uchun har bir mavzu qandaydir tarzda inson huquqlari bilan bog‘lanib, inson huquqlari tarkibiga kiritilishi mumkin. Insoniyat tarixi bir jihatdan inson huquqlari tarixidir, deb aytish mumkin. Insonlar qadimdan bir-birlarining huquqlarini buzib kelgan ko‘pgina voqealarga tarixiy manbalar guvohlik beradi. Hazrat Odamning o‘g‘li Qobilning ukasi Hobilni o‘ldirishi voqeasi bu holatga misol bo‘ladi. deb hisoblanishi mumkin. Islomda inson huquqlari tushunchasi tenglik va adolat tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Islom huquqi – bu nafaqat huquqiy tartibotlarni, balki jamiyatda adolatni ta’minlash va shaxslarning diniy hamda axloqiy majburiyatlarini ado etishini ham ko‘zda tutgan tizimdir. Shu munosabat bilan, islom huquqida inson huquqlari, insonning yaratilishdan kelib chiqadigan huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq tarzda ko‘rilgan. Qur’on va Sunnat – Islom huquqining asosiy manbalari sifatida – inson huquqlariga oid asosiy tamoyillarni bayon qilgan va bu tamoyillar vaqt o‘tishi bilan fiqh ulamolari tomonidan turli nazariy doiralarda ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqot islom huquqining klassik davridan to zamonaviy davrgacha inson huquqlari bo‘yicha shakllangan nazariyalarni tahlil qilib, bu nazariyalar qanday tarixiy va ijtimoiy sharoitda shakllanganini, qanday shartlarda qo‘llanilganini va vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanganini ko‘rsatib beradi.[1]

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada tarixiy, diniy-huquqiy va kontseptual tahlil usullari asosida ilmiy izlanish olib borildi. Islom ta’limotida insonparvarlik g‘oyalari Qur’on oyatlari, sahih hadislari hamda klassik va zamonaviy islom olimlarining asarlari asosida o‘rganildi. Islom huquqining bugungi kunga qadar turli nazariyalarini tahlil qilingan. Bu nazariyalar qanday tarixiy va ijtimoiy sharoitda shakllanganini, qanday shartlarda qo‘llanilganini va vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanganini ko‘rsatib beradi.[2] Islom huquqi doirasida ishlab chiqilgan “insoniylik nazariyasi”, “imon nazariyasi”, “maqosid va maslahat nazariyasi” hamda “inson sha’ni nazariyasi” kabi asosiy yondashuvlar inson huquqlarining turli jihatlarini yoritib, bu huquqlarning islom huquqidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qiladi.[4]

“Insoniyat nazariyasi” – insonning yaratilishdan keladigan asosiy huquqlari va bu huquqlarning islom huquqi doirasida qanday himoya qilinishini o‘rganadi.

“Imon nazariyasi” esa musulmon bo‘lmagan shaxslarning huquqlari qanday himoyalanishi va bu huquqlar qanday shartlarda kafolatlanishini muhokama qiladi. Bu ikki nazariya islom huquqi doirasida inson huquqlarining o‘rni va ahamiyati haqida chuqur tushuncha beradi va bu huquqlarning asoslarini ochib beradi.

“Maqosid va maslahat nazariyasi”, Islom huquqining maqsad va tamoyillariga e'tibor qaratib, shaxsning asosiy huquqlarini himoya qilish uchun qanday qadriyatlar va tamoyillar muhim ekanini tushuntiradi. Bu nazariya yashash huquqi, din va vijdon erkinligi, avlodning himoyasi kabi asosiy inson huquqlarini tahlil qilgan holda, islom huquqining ushbu huquqlarga munosabatini ko'rsatadi.

“Inson sha’ni nazariyasi” esa inson sha’nni himoya qilish islom huquqi uchun naqadar muhim ekanini va bu sha’nni himoya qilish uchun qanday huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilganini tahlil qiladi. Ayollar huquqlari, qullik, qynoqlar va yomon muomalaga qarshi taqiqlar kabi mavzular ushbu nazariyaning asosiy tadqiqot doirasini tashkil etadi.[5]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Islom ta'limotida insonparvarlik tamoyillari, nafaqat diniy buyruqlar, balki axloqiy majburiyatlar sifatida ham chuqur asoslangandir. Tadqiqot davomida turli zamonaviy islomshunos olimlarning qarashlari bu mavzuni chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Professor Ertug'rul Boynukalin o‘z izlanishlarida Qur'on va Sunnat asosida rivojlangan islom axloqi tizimida inson sha’ni, yashash huquqi va adolat tamoyillarining markaziy o‘rin egallaganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, islomdagi insonparvarlik – bu faqat musulmonlar uchun emas, balki barcha insonlar uchun amal qiladigan umumiy axloqiy mezondir. Uning ishlanmalarida insonning yaratilishdagi qadr-qimmati asosiy nuqtai nazar sifatida ko'riladi.

Prof. Dr. Orhan Cheker [6] esa, fiqhiy manbalarda inson huquqlari va erkinliklari masalasini tahlil qilar ekan, islom huquqi doirasida adolatli ijtimoiy tizim barpo etishning muhim tamoyillarini ochib beradi. Uning fikricha, maqasid ash-shari'a (shariat maqsadlari) doirasida insonparvarlik – bu jamiyatdagi zaif qatlamlarni himoya qilish, adolatni tiklash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasidir. U diniy va huquqiy yondashuv o'rtasidagi muvozanatni alohida e'tirof etadi.

Said Muhammad Farruh Buxoriy islomda inson huquqlarini global miqyosda baholashga harakat qilib, musulmon jamiyatlarining zamonaviy inson huquqlari tushunchalari bilan qanday uyg'unlasha olishini muhokama qiladi. U insonparvarlik g'oyalari nafaqat diniy matnlarda, balki tarixiy islom amaliyotida – xususan, xalifalik davrida qanday ro'yobga chiqqanini yoritadi. Uning qarashlariga ko'ra, islomiy meros hozirgi xalqaro huquq tizimi bilan integratsiyalashuv uchun boy asos yaratadi.[7]

Abdullah Demir esa, islom tafsir va hadis manbalarida insonparvarlikning ruhiy, axloqiy va huquqiy o'lchamlarini tahlil qiladi. U rahm-shafqat, sabr, bag'rikenglik, ehson (yaxshilik qilish) kabi tushunchalarni insonparvarlikning asosi deb biladi. Ayniqla, u ayollar, yetimlar va kambag'allar huquqlariga oid oyat va hadislarni tahlil qilgan holda, islomda zaif qatlamlarga bo'lgan e'tiborning o'ziga xos tizimini ko'rsatib beradi.[8]

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, islom ta'limotida insonparvarlik faqat nazariy prinsip emas, balki ijtimoiy va shaxsiy hayotda faol tarzda amaliyatga tatbiq etilgan tamoyildir. Bu tamoyillar diniy matnlarga asoslangan holda rivojlangan, fiqhiy tizimlar orqali mustahkamlangan va bugungi kunda ham aktual ahamiyatini saqlab qolgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, islom ta'limotida insonparvarlik, mehr-oqibat,adolat va o'zaro hurmatning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.Islom dini insonning o'ziga va boshqalarga nisbatan hurmatini oshiradi, ijtimoiy tenglikni targ'ib qiladi va inson huquqlarini himoya qiladi. Islomda insonparvarlikning bosh g'oyalardan biri, barcha odamlar bir-biriga yordam berishlari, qo'llab-quvvatlashlari va bir-birini aziz tutishlaridir. Shuningdek, islomda najotga erishishning kaliti, insonning o'zini va jamiyatni rivojlantirish uchun boshqalarga nisbatan mehr-muhabbatni yoyishda ekanligi ta'kidlanadi. Shu tariqa, islomning insonparvarlik tamoyillari jamiyatda tinchlik, barqarorlik va yaxshilikka olib keladigan asosiy yo'lni tashkil etadi. Islom huquqining inson huquqlari tushunchasi zamon va sharoitga qarab rivojlanib borgan va bugungi kunda ham inson huquqlarini himoya qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Islomiy tamoyillar zamonaviy inson huquqlari g'oyalari bilan ko'plab o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ba'zi jihatlarida o'ziga xosliklarni saqlab qolgan.

Xulosa qilib aytganda, islom ta'limotida insonparvarlik tamoyillari jamiyatda barqarorlik, adolat va tinchlikni ta'minlash uchun muhim asos hisoblanadi va bu tamoyillar zamonaviy dunyoda ham inson huquqlarini rivojlantirish va himoya qilishda muhim rol o'yaydi.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

1. Ekrem Buğra Ekinci, Osmanlı Hukuku, İstanbul 2006, s. 203.
2. Acar, Abdullah. "İslam ve Batı Medeniyetinin Hak, Emanet ve Adalet Anlayışları". Necmettin Erbakan Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi 47 (2019), 277-312.
3. Akgündüz, Ahmet. İslâm'da İnsan Hakları Beyannamesi. İstanbul: Timas Yayıncılıarı, 1993.
4. Syed Muhammad Farrukh Bukhari. "İSLAM ÜLKELERİNDE ULUSLARARASI İNSAN HAKLARI HUKUKUNUN YÜRÜRLÜĞE KONULMASI VE UYGULANMASI; PROBLEMLER VE BEKLENTİLER". İstanbul: 2021
5. Muhammed Ebû Zehra, İslâm Hukuku Metodolojisi (Fikih Usulü), çev. Abdülkadir Şener (Ankara: Fecr Yayıncılığı, 1997), 323.
6. Orhan ÇEKER. İSLÂM HUKUK TARİHİNDE İNSAN HAKLARI. Konya-2024 409 s.

7. Syed Muhammad Farrukh Bukhari. “İSLAM ÜLKELERİNDE ULUSLARARASI İNSAN HAKLARI HUKUKUNUN YÜRÜRLÜĞE KONULMASI VE UYGULANMASI; PROBLEMLER VE BEKLENTİLER”. İstanbul: 2021
8. Abdullah DEMİR. İSLAM'DA İNSAN HAKLARI. İstanbul: 2021. 17 s
9. Recep Şentürk, “Farklı Dünya Medeniyetlerinde İnsan Hakları”, Kur'an ve Sünnete Göre Temel İnsan Hakları, İstanbul 2014, s. 25.